

RIVOJLANISH KONSEPSIYASI

Otayorov Oxunjon Shovxiddin o'g'li

Eshboyeva Farangiz Axmadjon qizi

Abruyeva Salomat Shavkat qizi

Samarqand davlat universiteti

*Kattaqo'rg'on filiali "Axborot texnologiyalari"
kafedrasida Matematika yo'nalishi 3-kurs talabalari*

Butoyev Ilxom Uzokovich

*Ilmiy rahbar: Samarqand davlat universitetining
Kattaqo'rg'on filiali "Pedagogika va tillarni o'qitish"
kafedrasida assistenti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada rivojlanish konsepsiyalari haqida yoritilgan. Jumladan Barqaror rivojlanish konsepsiyasi, Barqaror rivojlanishni taminlashga oid konferensiya va dasturlar, Tabiat, jamiyat va iqtisodiy rivojlanish barqarorligini ta'minlashning ekologik jihatlari haqida batafsil yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Konsepsiya, komissiya, taraqqiyot, YUNEP, tashkilot.*

Tabiiy boyliklardan foydalanmasdan turib biror bir inson, jamiyat yoki davlat yashay olmaydi. Ularning bu dunyoda farovon hayot kechirishlari va rivojlanishlari esa ularni o'rab turuvchi atrof tabiiy muhitdan nechog'li foydalanish imkoniyatlariga ega ekanliklari bilan belgilanadi. Shuning uchun ham qadim-qadimlardan kishilik jamiyati tabiat ne'matlarini o'zlashtirib olishga bor kuch va g'ayratlarini ishga solganlar. Natijada davlatlar, jamoalar va insonlar o'rtasida turli ziddiyatlar, urushlar kelib chiqqan va barqarorlikka jiddiy ziyon yetkazgan.

«Barqaror rivojlanish» konsepsiyasini yaratilish tarixiga chuqur nazar tashlaydigan bo'lsak, u aynan xalqaro hamjamiyatning atrof-muhitni muhofaza qilishga oid harakatlardan boshlanganligiga iqror bo'lamiz.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi

Dunyo hamjamiyatining yangi barqaror rivojlanish konsepsiyasi birinchi marotaba 1987 yil BMTning Butunjahon atrof muhit va rivojlanish bo'yicha Komissiyasi tomonidan ishlab chiqildi.

Mazkur Komissiya o'zining Gro Xarlem Brundtland konsepsiyasi degan nomini olgan «Bizning umumiy kelajagimiz» ma'ruzasida hozirgi avlod odamlarni hayotiy ehtiyojlar qondirilishini kelasi avlodning munosib hayotga

bo'lgan huquqini hisobga olib, dunyo hamjamiyatining barqaror rivojlanish konsepsiyasi modelini yaratdi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi – bir meyorda(stabil) rivojlangan davlatlar va butun dunyo hamjamiyatining xususiyat, mohiyat va tarkibiy qarashlar tizimidir.

1987 yil BMTning Butunjahon atrof-muhit va rivojlanish Komissiyasi tuzildi va unga Norvegiyalik davlat arbobi Gro Xarlem Bruntland rahbarlik qildi. Komissiyaning «Bizning umumiy kelajagimiz» nomli hisobotida barqaror rivojlanish konsepsiyasi modeli – hozirgi avlod ehtiyojlarining qondirilishi va kelasi avlodlarning munosib hayot kechirishga bo'lgan huquqini hisobga olgan tarzda amalga oshirilishi lozim, deya takidladi.

Yangi Barqaror taraqqiyot dasturi

2015 yil 25 sentabr kuni barcha mamlakatlarning yetakchilari 2030 yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan barqaror taraqqiyot dasturini qabul qilib, talablardan aniq harakatlarga o'tish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu-Yorkdagi bosh qarorgohida yig'ilishadi.

Barqaror taraqqiyot 2030 dasturi yangi 17 ta Barqaror taraqqiyot maqsadlari (BTM)dan, yoki Global maqsadlardan iborat bo'lib, keyingi 15 yillik davrdagi umumjahon siyosati va sarmoyalar yo'nalishlarini belgilab beruvchi dasturdir. Unda dunyo mamlakatlarining yetakchilari qashshoqlikka – dunyoning barcha nuqtalarida, batamom – barham berishga va'da qilishi kutiladi.

Ming yillik taraqqiyot maqsadlari

- Daromad bo'yicha qashshoqlik
- Yaxshilangan suv manbalaridan foydalanish imkoniyati
- Bolalarning boshlang'ich ta'lim muassasalarida o'qishi
- Bolalar orasidagi o'lim darajasi

Rim klubi tashkilotining barqaror rivojlanishda tutgan o'rni.

Fan, madaniyat, maorif va davlat arboblari iborat bo'lgan kishilar yuzaga kelgan salbiy ekologik oqibatdan chiqib ketish rejasini ishlab chiqish maqsadida «Rim klubi»ni tuzishdi.

«Rim klubi» a'zolarining 1970 yilda «O'sish chegarasi» kitobi, faoliyat hisoboti tariqasida, juda ko'p nashrda va tillarda chop etildi.

«Rim klubi» hisoboti 1972 yil 5 iyunda Shvetsiya poytaxti Stokgolm shahrida Butunjahon «Atrof-muhitni muhofaza qilish» Konferensiyasini chaqirishga asos soldi.

Mazkur konferensiyani, hech mubolag'asiz, xalqaro hamjamiyatning ekologik dunyoqarashidagi tub burilish nuqtasi, deyish mumkin.

√ Stokgolm Konferensiyasi tavsiyanomasiga binoan Birlashgan Millatlar tashkilotining(BMT) Bosh assambleyasi Xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish dasturi(YUNEP) tashkilotini shakllantirdi.

√ Konferensiyaning ochilish kuni (5 iyun) har yili dunyoda Butunjahon atrof muhitni muhofaza qilish kuni sifatida nishonlanadigan bo'ldi.

√ Stokgolm konferensiyasi qarori bilan Butujahon atrof-muhitni muhofaza qilish jamg'armasi tashkil etildi. Jamg'armaga BMTga a'zo barcha davlatlar badal to'lovlarini to'lab turish majburiyati yuklandi.

YUNEP dasturining mazmuni va mohiyati

Butun sayyoramizni qamrab olgan global ekologik muammolarni hal etishda barcha mamlakatlar kuchini birlashtirish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1972-yilda UNEP (United Nations Environment Programme - BMTning Atrof-muhit Dasturi)ga asos soldi.

Shundan buyon UNEP atmosfera havosini tozalash, chegaralararo ifloslanishlarning oldini olish, iqlim o'zgarishi, ozon qatlamini himoya qilish kabi jahonshumul ekologik muammolar bo'yicha global kurashni muvofiqlashtirish bilan shug'ullanmoqda.

Rio-de jeneyro konferensiyasi!

Atrof-muhit muhofazasi sohasida eng muhim voqea - 1992 yil 3-14 iyun kunlari Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida bo'lib o'tgan BMTning «Atrof-muhit va rivojlanish»ga doir konferensiyasi (AMRK) hisoblanadi. Chunki, uning ishida dunyoning 170 dan ziyodq, jumladan Mustaqil davlatlar hamdo'stligidan 7 davlat vakillari ishtirok etgan va 130 davlatlar esa hukumat boshliqlarini yuborgan.

Konferensiyaning maqsadi - davlatlarning barqaror rivojlanishi va tinch-totuv yashashini ta'minlash uchun ekotizimlarga tushadigan bosimni kamaytirishdir.

Iqtisodiyot, ijtimoiy turmush va atrof-muhit masalalari hukumat miqyosida ham, moddiy miqyosda ham bir-biridan alohida tarzda ko'rib chiqiladi.

Biroq endi iqtisodiy jihatdan samarali, ijtimoiy nuqtai nazardan odilona va atrofimizdagi tabiatga do'stona munosabatda bo'luvchi oldinga siljishning strategik yo'nalishini ishlab chiqish uchun atrof-muhit va ommaviy taraqqiyotga bir-biriga bog'liq tizim sifatida qarash zarurati tug'ilmoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida barqaror taraqqiyotning dolzarbligi va zaruriyati

1995 yil 18-20 sentabr kunlari o'tkazilgan "Orol dengizi havzasini barqaror rivojlantirish" bo'yicha BMT konferensiyasi davomida beshta Markaziy Osiyo mamlakatining Prezidentlari tomonidan ilk bor tarixiy Nukus Deklaratsiyasi

imzolandi va unga binoan, bu mamlakatlar barqaror rivojlantirish va "XXI asr uchun kun tartibi"ga qat'iy tarzda tarafdor ekanliklari o'z tasdig'ini topdi.

Xulosa

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi ishlab chiqarish va iste'mol qilish, aholining o'sishi va ijtimoiy himoyasi o'rtasidagi muvozanatni rivojlangan va rivojlanish yo'lida turgan barcha davlatlarda saqlashni hisobga oladi. Ekologik muammolarning yechimi biron bir davlat (masalan, AQSH) yoki biron bir davlatlar (masalan, "katta sakkizlik") faoliyatiga bevosita bog'liq emas.

Barcha o'tkaziladigan konferensiya va sammitda ijtimoiy hayotning ekologik muammolari davlat va mintaqalarning bir maromda rivojlanishida, ularning ijtimoiy-iqtisodiy mo'tadilligini ta'minlovchi eng muhim elementi sifatida ko'rib chiqiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tabiat.Jamiyat.Ma'naviyat Prezident I.Karimov asarlarida ekologik masalalarning yoritilishi. Tuzuvchi va so'z boshi A.Nigmatov.-T."O'zbekiston", 2009.
2. Azizov A.A., Akishina N.G. Obrazovaniye v interesax ustoychivogo razvitiya.-T., 2008.
3. Nigmatov A.N., Shivaldova N.S., Sultonov R.N. Barqaror rivojlanishning ekologik jihatlari // Qo'llanma. – T.: Bioekosan, 2004.